

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 964,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 6,7 ming kishiga yoki 0,7 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 469,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,7 %), qishloq aholisi soni 494,9 ming kishini (51,3 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **6,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **19,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **4,2 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **6,1 mingta nikoh** va **1,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Navoiy viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)

Tirik tug'ilganlar
19,1 ming bola

Tabiiy
o'sish
14,9
ming kishi

Vafot etganlar
4,2 ming kishi


Aholining
umumiyo'sishi
6,7
ming kishi

Ko'chib kelganlar
13,6 ming kishi

Mexanik
o'sish
(kamayish)
-0,9
ming kishi


Ko'chib ketganlar
14,5 ming kishi

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 193,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 20,0 %ni) va Qiziltepa tumanida 147,6 ming kishini (15,3 %), aksincha eng kam aholi soni Tomdi tumanida 14,5 ming kishi (1,5 %) va Konimex tumanida 29,9 ming kishini (3,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Xatirchi tumanida 1,7 %ni, Qiziltepa tumanida 1,4 %ni, Karmana tumanida 2,6%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Navoiy shaxri va Konimex tumanida 0,7%ni, tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 9,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan -0,7 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 19,8 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Tomdi (14,3 promilledan 14,8 promillega) va Xatirchi (20,7 promilledan 21,2 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Konimex (21,2 promilledan 19,6 promillega), Navbaxor (19,6 promilledan 17,4 promillega) va Karmana (21,3 promilledan 19,9) promillega tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qizbolalar:
4,8
ming nafar

O'g'il bolalar:
4,3
ming nafar

Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-iyunda

	Tug'ilganlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	9294	9098	97,9
Navoiy sh.	1269	1249	98,4
Zarafshon sh.	806	811	100,6
Konimex	312	290	92,9
Qiziltepa	1241	1209	97,4
Navbahor	1044	940	90,0
Karmana	1278	1224	95,8
Nurota	878	844	96,1
Tomdi	103	106	102,9
Uchquduq	418	399	95,5
Xatirchi	1945	2026	104,2

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 2,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 4,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan birgina Zarafson shaxrida (3,7 promilledan 3,9 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Navoiy (5,3 promilledan 4,7 promillega) Konimex (7,2 promilledan 4,5 promillega), Navbaxor (4,5 promilledan 4,0 promillega) Karmana (5,2 promilledan 4,6 promillega) va Nurota (5,1 promilledan 4,2 promillega) viloyatlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar: 1,1 ming kishi **Ayollar:** 0,9 ming kishi

Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-iyunda


	O'Iganlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %da
Navoiy viloyati	2191	2009	91,7
Navoiy sh.	336	319	94,9
Zarafshon sh.	137	157	114,6
Konimex	106	59	55,7
Qiziltepa	316	306	96,8
Navbahor	258	215	83,3
Karmana	320	281	87,8
Nurota	231	188	81,4
Tomdi	32	30	93,8
Uchquduq	80	70	87,5
Xatirchi	375	384	102,4

Demografik holat

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,0 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,2 %i o'simtalardan, 7,5 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,07 ming nafarni tashkil etib, ularning 65,8 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 2,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 23,3 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va 6,73 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 7,1 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 7,1 ming kishini ko'rsatmoqda.



Tabiiy o'sish:
7,1 ming kishi

Nikoh. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 6,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xatirchi (0,8 %), Uchquduq (1,8 %), Navbaxor (0,7 %), Nurota va Tomdi (1,0 %) tumalariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi. Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nurota (0,1%), aksincha sezilarli darajada kamayishi Navoiy (0,4 %), Zarafshon (0,7 %), va Karmana tumanlariga (0,2 %) to'g'ri kelmoqda.



Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-iyunda



	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %da
Navoiy viloyati	2763	2912	105,4	582	523	89,9
Navoiy sh.	455	464	102,0	157	134	85,4
Zarafshon sh.	216	221	102,3	80	53	66,3
Konimex	69	78	113,0	18	15	83,3
Qiziltepa	475	414	87,2	62	61	98,4
Navbahor	295	333	112,9	49	40	81,6
Karmana	444	424	95,5	78	69	88,5
Nurota	163	209	128,2	26	30	115,4
Tomdi	25	32	128,0	3	7	233,3
Uchquduq	101	135	133,7	28	30	107,1
Xatirchi	520	602	115,8	81	84	103,7

Migratsiya. 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,4 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,1 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	6,9	6,5
Ko'chib ketganlar	7,0	6,9
Migratsiya saldosi	-0,1	-0,4

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Navoiy shaxrida (minus 0,9 ming kishi qayd etildi).